



VIEWS OF WORLD LINGUISTS ON THE IMPORTANCE OF GAMES IN CHILDREN'S LIFE

Rozikova Gulbahor Zaylobidinovna

Doctor of Philological sciences (DSC) at Fergana State University

Gulasal Husanova Shuhratjon qizi

2nd year Master of Linguistics (English) at Fergana State University

gulasal.husanova.98@mail.ru

Annotation: This article analyzes what linguists think about children games and how important they are in their life. Besides, they mention that games prepare children for future life in playing. There are many types of games as mentioned below and have their own role in kid's future.

Key words: linguistics, world linguists, personality, research, game therapy, didactic game.

JAHON TILSHUNOS OLIMLARINING BOLALAR HAYOTIDA O'YINLARNING AHAMIYATI HAQIDAGI QARASHLARI

Rozikova Gulbahor Zaylobidinovna

Farg'ona Davlat Universiteti filologiya fanlari doktori

Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Lingvistika(ingliz tili) 2-kurs magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslarning bolalar o'yinlari haqida qanday fikrda ekanligini va ularning hayotida qanchalik muhimligini tahlil qiladi. Bundan tashqari, ular o'yinlar bolalarni o'yinda kelajakdag'i hayotga tayyorlaydilar. Quyida aytib o'tilgan o'yinlarning ko'p turlari mavjud va ularning bolaning kelajagida o'z o'rni bor.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, jahon tilshunoslari, shaxs, tadqiqot, o'yin terapiyasi, didaktik o'yin.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunni belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Maasalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantanalar bilan amalga oshirilgan.

Tilshunoslik fanida, xususan hozirgi zamon tilshunosligida bolalar o'yin nomlari haqida turli olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Shu jumladan jahon tilshunos olimlari D.V.Elkonin, YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaf, N.K.Krupskayalarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun muhim manbalardan hisoblanadi. Buyuk psixolog D.V.Elkonin o'yining kelib





chiqishiga oid yangi g`oyani ilgari suradi va o`yinni "kelajakdagi shaxsning haqiqiy ijodiy fikrining ulkan ombori" deb ataydi. Jamiatning daslabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarni mehnat qilishlari uchun qulay o`yinchoq – mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O`yinchoq qurollar paydo bo`lishi natijasida rolli o`yinlar paydo bo`ldi. D.V.Elkonin o`z tadqiqotida rolli o`yinning syujet bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanligini yozadi. Uning fikricha, o`yinda bolalar kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o`yinning mazmunini tashkil qiladi va kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissi u`yg`onadi. O`yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o`zgarib turadi. Bola yoshligida qancha ko`p o`ynasa atrof olam haqida shuncha tushunchalarga ega bo`ladi, o`yin jarayonida bolada dastlabki kompensatsiyalar rivojlanadi ya`ni bola nima qilish kerakligini, qanday v anima uchun qilish kerakligi haqida o`zi o`yin davomida aniqlab boradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar o`yinlarini Elkonin o`z navbatida quyidagicha tasniflagan:

Maishiy mavzu syujetiga oid o`yinlar; (mehmon kutish, o`yinchoqlarni uxlatish kabi)

Ishlab chiqarish syujetiga doir o`yinlar; (loydan buyumlar yasash, qug`irchoqlarga kiyim tikish singari)

Ijtimoiy-siyosiy syujetli o`yinlar; (tarbiyachi rolini o`ynash, televizordagi boshlovchilarga taqlid qilish)

Mana shu o`yinlar orqali bog`cha, oshxonada turli tayyorlanadigan taomlar, hayvonot bog`ida hayvonlar, bog` va polizda turli meva va sabzavotlar, turli xil kasblar haqida bilim ko`nikma hosil bo`ladi.

" Bolalar o`yinlari ko`p asrlik tarixga ega-deb yozgan edi rus didaktikasining atoqli namoyondasi K.D.Ushinskiy, - insonning o`zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan". Binobarin " Bola uchun o`yin voqelik" deb aytgan Ushinskiy tevarak atrofdagi voqelikni nazarda tutgan. Bola o`yin orqali materiallarning ko`rinishi, rangi, turli o`simgilik va hayvonot olamidagi o`zgarishlarni anglaydilar. Ushinskiy bolaga o`yinning qiziqlik ta`rafi borligi sababi etib unda qisman bolaning o`zi yaratgan narsa borligini ko`rsatadi va shu sabab o`yin bola uchun qiziqarli deb izohlaydi. U bolalar faoliyatida o`yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo`lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o`yining bola shaxsini shakllantishdagi ahamiyatini asoslab berdi.

YA.A.Komenskiy o`yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllarigacha to`g`ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha o`yin – bolaning barcha qobiliyat ko`rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o`yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar dunyosi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o`yin davomida tengqurlari bilan do`stlashadi va muloqotni o`rganadi. Komenskiy o`yinga quvnoq bolalik va bolani uyg`un rivojlantirish sharti sifatida qrarar ekan, bunday deb yozgan





edi: "Bola sog'lom bo'lishi uchun u doimiy harakatda bo'lishi zarur, shundagina o'yin qiziqarli o'tadi. O'yinga rahbarlik qilish va bolalarning xatti-harakatlarini doimo kuzarib turish kerak. Chunki bolalar o'yin jarayonida har tomonlama tarbiyalanadilar".

Psixolog olimlar o'yinlarni to'rt guruhga bo'ladilar:

Funksional o'yinlar- bola organizmining har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu kichik yoshdagi bolalar uchun harakterli bo'lib unda bolalar nima bilandir shug'ullanadilar, turli predmetlar bilan tanishadilar.

Qoidali o'yinlar- bunday o'yinlarda bolalar tevarak atrofdagi va muhitdagi voqealardan xabardaor bo'lib, o'yin boshi tomonidan aytil buyruqlar bajariladi.

Rolli o'yinlar- bolalar o'zlarini ma'lum bir kasb egasi (shifokor, o'qituvchi, quruvchi, oshpaz singari) vazifasini bajarayotgandek his qiladilar. Har bir bola o'ziga tegishli rolni muvafaqqiyatlari bajarishga harakat qiladilar.

Konstruktorli o'yinlar- asosiy mazmuni qurilish komplekslari, taxta, qum, qog'oz materiallarining parchalarini qirqish, taxlash singari mehnat ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Binobarin, birinchi marta aynan Zigmund Freyd psixoanalizda o'yin terapiaysidan foydalanishni boshlaganligi va bolalar o'yinlarini tasvirlab, bola o'zining xotirasidagi passiv tajribalarni faol o'yinga aylantiradi, deb ta'kidlaganligini aytib o'tish lozim. M.Klein esa psixologiya tarixida birinchi marta bolani psixoanaliz yo'nalishida psixoterapiya qilishda o'yinchoqlardan foydalanishni tajribadan o'tkazgan. M.Klein bolaning o'yinini ongsizlikka kirishni ochib, erkin uyushmaga o'xhash deb tushuntirgan.

Demak, o'yin bu bolalar birinchi navbatda do'stlari bilan muloqotga kirishadigan mustaqil faoliyat turi ekanligini ta'kidlash o'rnilidir. Ularni umumiyligi maqsad, unga erishish yo'lidagi bирgalikdagi sa'y-harakatlar, umumiyligi manfaatlar va tajribalar birlashtiradi.

Rus professor o'qituvchisi A.S.Makarenko bolalar o'yinlari rolini

"O'yin bola hayotida muhim ahamiyatga ega, u kattalar faoliyatining, mehnati, xizmati bilan bir xil ma'noga ega. Bola qanday o'yin o'ynaydi, kelajakda ham ko'p jihatdan o'sha ishda bo'ladi. Shuning uchun kelajakdagi shaxsni tarbiyalash birinchi navbatda o'yinda sodir bo'ladi...", - deb ta'kidlagan. U o'yinlar bolalar va yoshlarni mehnatga tayyorlaydi deb hisoblardi. Shu bilan birga u maxsus ish harakatlariga uxhash harakatlarni talab etuvchi o'yinlarni birinchi o'ringa qo'yari edi.

G.V.Plexanov jamiyatning tarixiy rivojlanishida mehnat o'yindan yuqori tursada, lekin bola hayotida o'yin faoliyati mehnatdan oldin ekanligini isbotlab bergen.

N.K.Krupskaya o'yinlar bola faoliyatida kata rol o'ynashini ta'kidlab, shunday degan edi: "Bolalar faqat o'rish mobaynida o'sib qolmay, balki o'yin jarayonida ham o'rGANADILAR, ular uyishshishni o'rGANADILAR, hayotni tushinishni o'rGANADILAR". Uning fikricha, ishni shunday tashkil qilish kerakki, o'yinlar yosh avlodni tarbiyalashga, kelajak hayotga tayyorlashga yordam bersin. O'yinlar har xil bo'ladi. Ba'zi o'yinlar borki, bolalarda qo'polikni, maqtanchoqlikni, kekkayishni o'stiradi. Shunday o'yinlar





borki, ular jamiyatda o`z ornini topishni kerakli inson bo`lish yaxshiligini chidamli bo`lish kabi fazilatlarni o`rgatadi.

P.F.Lesgaft bolalar o`z o`yinlarida tevarak atrofdan olgan taasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida kata ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o`yining ijtimoiy voqea ekanligini, o`yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg`or olim va pedagoglar o`zlarining ilmiy kuzatish va tadqiqotlarida kursatib berdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov O. O'zbek xalq bolalar o'yinlari/ Sharq nashriyoti, Toshkent,2013.
2. Erkinov R. Bolalar o`yinlarining ahamiyat// Scientific progress, 2022, volume 3. B. 567-568.
3. Bolalar huquqlari to`g`risida Konvensiya. 1989-yil 20-noyabr.
4. Mirzayev T, Turdimov Sh. O'zbek folklori darslik , Toshkent 2020.
5. Usmanxodjayev.T.S. Milliy va harakatli o'yinlar/Darslik,2015.

